

“CHORIQLBOY” KO‘PRIGI TARIXI

Halimov Tal‘at To‘rayevich, Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

HISTORY OF THE “CHORIKULBOY” BRIDGE

Khalimov Tal‘at Turaevich, PhD student at Karshi State University

ИСТОРИЯ МОСТА “ЧОРИКУЛБОЙ”

Халимов Талъат Тураевич, докторант Қаришнскогo государственного университета (PhD)

Annotatsiya: Mamlakatimiz tarixida o‘zining ezgu ishlari, xalqparvarligi bilan nom qozongan saxovatpeshalar ko‘p o‘tgan. Ana shunday millat darg‘alaridan biri – Choriqulboydir. Maqolada Choriqulboyning xalq oldidagi xizmatlari hamda bugungi kunga qadar saqlanib qolgan va uning nomi bilan ataladigan ko‘prik tarixi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Choriqulboy, Buxoro vohasi, quloqlashtirish, Romitan, “Choriqulboy” ko‘prigi, Zarafshon daryosi.

Abstract: In our country’s history, many philanthropists have become famous for their good deeds and philanthropy. One of the leaders of the people at those times was Chorikulboy. The article tells about Chorikulboy’s merits to the people and the bridge’s history with his name, which has survived to this day.

Keywords: Chorikulboy, Bukhara oasis, dekulakization, Romitan, Chorikulboy bridge, Zarafshan River.

Аннотация: В истории нашей страны было немало благотворителей, прославившихся своими добрыми делами и человеколюбием. Одним из таких лидеров народа является Чорикулбой. В статье рассказывается о заслугах Чорикулбоя перед народом и истории моста с его именем, сохранившегося до наших дней.

Ключевые слова: Чорикулбой, Бухарский оазис, раскулачивание, Ромитан, мост «Чорикулбой», река Зарафшан.

KIRISH. Choriqulboy Pirnafasboy o‘g‘li (1847-1934) barpo ettirgan va qurilishiga boshchilik qilgan inshootlar bugungi kunda ham xalqimizga beminnat xizmat qilib kelmoqda. Zarafshon daryosi ustidagi mustahkam ko‘prik, Xayrobod arig‘i bo‘yidagi madaniyat uyi – klub, qishloq bolalari uchun kichik maktab, Buxoro viloyati Romitan tumanidagi Qoqishtuvon qishlog‘ining jon tomiri bo‘lmish ariq shular jumlasidandir. Ular orasida Zarafshon daryosi ustida 1911-1914 – yillarda barpo

etilgan mustahkam ko‘prik alohida ahamiyat kasb etadi.

1909-yilning bahorida Choriqulboy xalq manfaati va sadaqai joriya uchun kattaroq inshoot qurish masalasida arz bilan Amir Abdulahad huzuriga kiradi va undan masjid yoki madrasa qurish uchun ruxsat so‘raydi. Mavjud shariat qoidalariga ko‘ra, masjid yoki madrasa qurdirish istagida bo‘lgan kishining boylik manbai va daromadlari



<https://orcid.org/0000-0003-3906-9075>

e-mail:

ps.talathalimov@gmail.com

to'liq o'rganilib chiqilishi lozim edi. Shu sababdan amir topshirig'iga ko'ra bu masala bilan shug'ullanish Peshku qoziligiga topshiriladi. O'rganish ishlari bir necha oy davom etadi. Xulosa tayyor bo'lgach esa qozikalon huzuriga tashrif buyurgan Choriqulboy rad javobini oladi. Juda sertarmoq tadbirkorlik subyektlariga ega boyning ayrim daromad manbalari mavhum deb topiladi va sudxo'rlik aralashgan bo'lishi mumkinligi iddao qilinadi. Boshqa manbalarga ko'ra esa, Choriqulboy dastlab o'z mablag'laridan madrasa qurdirmoqchi bo'ladi, o'sha davrdagi shar'iy hay'at Choriqulboyning manblag'lariga ozgina sudxo'rlik qo'shilgan degan vaj bilan ruxsat berishmaydi, undan ko'ra xalqqa foydasi tegadigan boshqa narsa qurishni maslahat berishadi [5,1].

MUHOKAMA VA NATIJA. Ushbu voqealardan bir muddat o'tgach, Choriqulboy muftiyning tavsiyasiga ko'ra, amir huzuriga yana qayta arz bilan kiradi. Zarafshon daryosi ustidagi omonat chipta (qamish) ko'prik o'rnida mustahkam ko'prik qurdirish uchun ruxsat so'raydi. Qamish ko'prik masalasida tushgan arizalar ko'pligi tufayli ham boyning bu arizasi qanoatlantiriladi va amir ko'prik qurdirish uchun yorliq yozdirib beradi.

Ko'prik qurish uchun ruxsat 1909-yil oxirida olingan bo'lsa-da, nega bu jarayonlar 1911-yilgacha boshlanmadi? Choriqulboy yorliqni olgach shaxsan o'zi bir necha ilmiy yordamchilari bilan Yevropaga safar qiladi. Chexiya, Germaniya, Fransiya davlatlarida mavjud ko'priklar arxitekturasi bilan tanishadi, shu yerlik ustalar va arxitektorlar bilan maslahatlashadi. Barcha belgilangan xomashyolar va ustalar keltirilgach, Zarafshon daryosi ustida mashhur va mustahkam gidrotexnik inshoot qurilishi boshlandi.

Choriqulboy ko'prikni qurish uchun ustalarni Olmoniyadan chaqirtirdi. Ko'prik loyihasi (tarhi)ni tuzish uchun Chexiyadan mutaxassis olib keltirdi. Qurilish uchun kerak bo'ladigan tog' toshlari G'ozg'on va Qorovulbozordan tashib keltirildi. Jarayonda turli millat vakillari jalb qilinib, hashar sifatida ishlashga kelganlarga ham haq to'lash yo'lga qo'yilgan. Tosh va g'ishtlarni tashib keltirgan

aravachilarga 100 tangadan 150 tangagacha haq to'langan. Qurilishni shaxsan o'zi kuzatishga kelgan boy ishchilar orasidan sidqidildan ishlayotganlarga qo'y tortiq qilgan. Atrofdagi ko'maklashayotgan kichkina bolalarga qo'zichoq terili telpaklar tortiq qilingan [1,24].

Ko'prik hijriy 1328-1332 – yillarda (milodiy 1911-1914 – yillar) qurib bitkazildi va aholiga foydalanish uchun topshirildi[3,12]. Qurilish bitgach, Choriqulboy ko'prikdan Buxoro tomon ketishda chap tomonga shunday so'zlarni yozdirdi: “Men Choriqulboy, xalqimning rizoligi, dunyo havasi va shavqi, elim osoyishtaligi va mehri uchun, insonlar baxt-saodati, kelajagiga xizmat qilishi uchun ushbu ko'prikni qurdim”[2,31]. Ko'prikning qibla tomonidagi qubbaga esa “Choriqulboy Pirnafasboy o'g'li, 1914-yil” deb yozdirdi [2,43]. Uzunligi salkam 100 metr, eni 7,5 metr bo'lgan bu gidrotexnik inshoot 1911-1914-yillar davomida quriladi. Unda mahalliy aholi ham faol ishtirok etadi. Choriqulboy har bir ishlovchiga yaxshi haq to'lab, rozi-rizoligini olgan. Har biri enining uzunligi 3,5 metrdan iborat 8 ta ustunli bu ko'prik juda mahobatli bo'lib, uning qurilishida birorta ham yog'och, temir ishlatilmagan. Faqat obig'isht, tog' toshlari va ganchdan foydalanilgan. Shu tariqa 9 ta suv darvozasi bo'lgan, Yevropa davlatlaridagi ko'priklarni eslatuvchi inshoot qurilgan. 1914-yilda uning foydalanishga topshirilishi katta tantana qilingan[3,3].

Ko'prikning ochilish marosimiga Amir Sayyid Olimxon taklif qilinadi. Choriqulboyning o'zi amir huzuriga murojaatga kirib, mo'minlar amiri birinchi bo'lib o'tgan ko'prik qiyomatga qadar qulamasligini aytib mulozamat qiladi. Amir rozilik bildirgach, ko'prik ustiga yuz metr oldindan boshlab yuz metr keyingacha gilam, uning ustidan esa kimxob va baxmal yopiladi.

Topshiriq bajarilgach, amir Olimxon undan birinchi bo'lib o'tadi, uning izidan oltin tangalar sochiladi [2,17]. So'ng shu yerda xatmi-qur'on qilinib, amir buyrug'iga ko'ra ko'prikka Choriqulboy nomi beriladi.

Bugungi kunda ham qad ko'tarib turgan bunday mustahkam inshoot – Choriqulboy ko'prigining mustahkamlik siri nimada edi? Shu masala bo'yicha bir qator fizik olimlar ish yuritib, uni o'rganib chiqdilar. Ularning aytishicha, bu ko'prik jismlarning sferik sirtida tezlanish bilan harakatlanganda og'irligining kamayishi qonuniga asoslanib qurilgan. Ko'prik qurilishida fizika, nazariy mexanika, materialshunoslik, geometriya qonunlaridan o'z o'rnida foydalanilgan. Bernulli qonuni, tutash idishlar, suvning kinetik energiyasi, shovqin hodisasi, yorug'lik dispersiyasi kabi qonunlardan foydalanilganligi kuzatiladi. Shuningdek, jismlarning issiqlik ta'sirida chiziqli va hajmiy kengayishi ham hisobga olingan. Ko'prik gorizontga nisbatan 25° qilib qurilgan. Qurilishda faqatgina marmar, granit, g'isht va ganch ishlatilgan. Metallardan umuman foydalanilmagan. Inshoot shunchalik mustahkam qilib qurilganki, "O'zavtoyo'l" DAK ta'kidlashicha, ko'prik 9 balli zilzilaga berdosh bera oladi [6,4].

Ko'prikning uzunligi har ikki qirg'og'idan hisoblanganda 81 metr, ammo ikki chetidagi zinasimon yo'llari bilan qo'shib hisoblaganda 100 metrga teng. Eni 7,5 metr. Ko'prikda 8 ta ustun bo'lib, ularning balandligi 4 metr, poydevori 3 metrdan ko'proq. Ustunlarining eni 3,5 metr. Ko'prik qurilgan davrida uning ustida bir metr balandlikdagi devorcha farsh qilingan. Hozir esa u yo'q bo'lib ketgan.

Ko'prik qurilishida ishlatilgan marmar toshlarning o'lchamlari $75 \times 40 \times 30$ sm, pishiq g'ishtlar o'lchami esa $25 \times 12,5 \times 6,5$ sm. Ko'prikda 9 ta suv darvozasi bor. Darvozalarning kengligi har xil. Ular 5 metrdan 6,5 metrgacha kenglikni tashkil qiladi. Ko'prikning suv sathidan balandligi 6 metr. Ko'prik 9 ta gumbazsimon sferik sirtlar yig'indisidan iborat bo'lib, har bir sferik sirtning egrilik radiusi 7,5 metrdan 9 metrgacha. Sferik sirtida tezlanish bilan harakatlanayotgan jismning og'irligi ortishi ortiqcha yuklanish deyiladi. Qurilishda bu ham hisobga olingan. Bir misol keltiraylik: Qavariq



ko'prik ustidan harakatlanayotgan avtomobilning og'irligi tinch turganidagiga nisbatan yengilroq bo'ladi. Shuning uchun Choriqulboy ko'prigi 9 ta qavariq sirtidan iborat. Bu qavariq sirtlarning nega aynan to'qqizta ekanligi xususida qator mulohazalar mavjud. Ulardan biri shundayki, chorvador xalqida 9 soni azaldan xislatli son hisoblangan. Ular to'qqiz oyni mehnat oyi hisoblab, "to'qqizing uchingga yetadimi?", "to'qqizni uchga ur", ya'ni to'qqiz oy ishlab, qishning uch oyida dam olish iboralarini ko'p qo'llaganlar. Shu to'qqiz oy mobaynida qishki mavsum uchun chorvaga yem-xashak jamlangan. Bundan tashqari to'qqizning o'ziga xosligi to'qqizta sayyoraga ham bog'lanadi.

Qurilish uslubi va arxitekturasi Choriqulboy ko'prigiga o'xshash ko'priklar o'rganilganda, Kordovadagi Rim ko'prigi, Bavariyadagi Regensburg ko'prigi, Sivasdagi Kesik ko'prigi, Hirotdagi Malan ko'prigi, Isfahondagi Haju ko'prigi kabilarda juda o'xshash uslub sezilib turadi.

70-yillarning o'rtalarida Zarafshonda suv ko'payib, ko'prik ostiga suv sig'maydi deb, bolg'alovchi moslamalar va ekskvatorlar bilan ko'prikni buzmoqchi bo'lganlar. Ammo buzishning ilojini topa olmagach, boshqa ko'prik qurganlar.

XULOSA. Mustaqillikdan keyin ko'p yillar ko'prikning ustki qismi "Navro'z" choyxonasining yozgi oshxonasi sifatida foydalanilib kelindi. Yuqorida aytib o'tilganidek, ko'prikning har ikkala tomonida bir metrli pishiq g'ishtdan devor qilingan. Devorning usti temir panjara bilan o'ralgan. 1956-yilgacha bu panjara saqlanib qolgan, keyinchalik esa yo'qolib ketgan [1,13].

2014-yilda Romitan tuman hokimligi tashabbusiga ko'ra Choriqulboy ko'prigining 100 yilligiga bag'ishlab ta'mirlash ishlari olib borildi va ko'prikning tarixiy holati qayta tiklandi. Uning yonida foydalanilayotgan mavjud ko'prik ham qayta mukammal ta'mirlandi va ko'prik atrofi obodonlashtirilib, yo'llarga asfalt yotqizildi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Halimov T.A. Saxovatli Choriqulboy, Buxoro, 1996.
2. Halimov T.A., Halimov T.T. Asrlarga tatigulik saxovat. Buxoro, 2014.
3. Halimov T., Qobilov I. Qadimiy va navqiron Romitan. Toshkent - O'zbekiston. 1997.
4. Xalqning rizoligi uchun qurilgan inshoot yoki Romitandagi davlat muhofazasiga olingan Choriqulboy ko'prigi haqida nimalarni bilamiz? // Xalq so'zi. 2023-yil 19-fevral.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Choriqulboy_ko%CA%BBprigi
Buxoroda yuz yillik tarixga ega ko'prik. <https://daryo.uz/2015/03/10>